

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI
FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI
JORIY ETISH ISTIQBOLLARI**

Atamuratov Bobirmirzo Baxram o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda kuzatuv kengashi faoliyatini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, kuzatuv kengashi, moliyaviy barqarorlik, raqamli texnologiyalar, korporativ boshqaruv.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini jadallashtirishning dolzARB masalalaridan biri davlat organlari, kompaniyalar, korxona va tashkilotlarga, biznes faoliyatning barcha sohalariga «raqamli iqtisodiyot», zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va ulardan keng foydalanish hisoblanadi. Shu maqsadda, oxirgi yillarda davlat rahbari va hukumatning bir qator qarorlari asosida malakatimizda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar belgilandi hamda uni joriy etish va rivojlantirish sohasidagi vakolatli davlat organi tayinlandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oxirgi paytlarda kompaniyalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga hamda korporativ boshqaruvni takomillashtirishga yordam beradigan amaliy biznes-dasturlar nafaqat keng foydalanib kelinmoqda, balki amaliy biznes-dasturlardan foydalanish jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan sohalardan biriga aylangan.

Jahon amaliyotida kompaniyalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va korporativ boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishda uchta asosiy soha ajratiladi: 1) strategik menejment; 2) ichki nazorat tizimini boshqarish; 3) aksiyadorlar (investorlar, manfaatdorlar tomonlar) bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish (shareholder/investor/stakeholder relations management).

strategik menejment

ichki nazorat tizimini boshqarish

aksiyadorlar (investorlar, manfaatdorlar tomonlar)

bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarish

1- rasm. Kompaniyalarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va korporativ boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi sohalar

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Kompaniya strategiyasini amalga oshirish jarayonida direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) ning ijroiya organi bilan hamkorligi, ijroiya organining ichki nazorat tizimini boshqarish bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarishlari, kompaniyaning aksiyadorlar va boshka manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorligi masalalarini raqamli texnologiyalar yordamida samarali ta’minlash mumkin. Kompaniya strategiyasini boshqarishda direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) va ijroiya organi a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, hisobot ko‘rinishidagi axborotlar bilan o‘zaro almashinuvlar muhim ahamiyatga ega. Bu yerda kompaniyaning hozirgi holati va faoliyati to‘g‘risidagi ob’ektiv hamda bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hisobotlarni shakkantirishni hamda ularni kompaniyaning rahbarlari tomonidan doimiy ravishda olib turishlarini korporativ IT-tizimi ta’minlaydi. Bunday tizimlarga riskni boshkarish tizimi, axborot xavfsizligini ta’minlash tizimi, korporativ konunchilik talablariga rioya kilish tizimlari (komplaens tizimlar) ni kiritish mumkin. Riskni boshqarish IT-tizimlari ko‘pincha innovatsion faoliyati yuqori bo‘lgan kompaniyalarda hamda moliyaviy mussasalarda qo‘llaniladi. Ayniqsa, banklarda riskni boshqarish tizimi korporativ boshqaruvning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Bunday IT-tizimlar kompaniyalarda kreditlarni tahlil qilishga, operatsion risklarni baholashga, kelgusidagi ishlar va xarajatlarni baholashga, riskni boshqarish bo‘yicha hisobotlarni tuzishga, va buning natijasida, menejerlarga yangi va aniq ma’lumotlardan foydalanib, optimal qarorlarni qabul qilishga imkon beradi. Mazkur tizimlardan to‘laqonli foydalanish uchun maxsus korporativ IT- infratuzilmalar yaratilgan.

NATIJALAR

Axborot xavfsizligini ta'minlovchi IT-tizimlar ham kompaniyalarda ichki nazoratni olib borishda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali kompaniyada korporativ ma'lumotlar va axborotlarni hamda tijorat sirlarini maxfiy saqlash, direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) tomonidan axborot xavfsizligini qat'iy nazorat qilish amalga oshiriladi.

Bundan sanoatni rivojlantirish sohasidagi strategiyalar dunyoning turli mintaqalari: Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyoda, jumladan, Germaniya, Xitoy, Braziliya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Estoniya, Gollandiya, Irlandiya, Shvesiya, Singapur, Filippin, Malayziya kabi mamlakatlarda, shuningdek eng yirik sanoat kompaniyalari tomonidan (masalan, Siemens, General electric, SAP, Intel) ishlab chiqilgan va amalga oshirib kelinmoqda.

1-jadval

Mamlakatlarning raqamli strategiya bo'yicha dasturlari

Mamlakatlar	Strategiyalar	Qabul qilingan yili
Yevropa Ittifoqi	"Raqamli Yevropa 2020"	2010
Germaniya	"Sanoat 4.0"	2011
Xitoy	"Internet plyus"	2015
Rossiya	"Internet kommunikatsiya tarmog'ining Rossiya segmentini va iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasi"	2015
AQSh	"Raqamli Strategiya 2020-2024"	2018
Singapur	"Milliy sun'iy intellekt strategiyasi"	2018
O'zbekiston	"Raqamli O'zbekiston -2030 strategiyasi"	2020

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiyotda, balki jamiyatning o'zida ham tub o'zgarishlarga olib keladi. Shunday qilib, axborot xarajatlarining pasayishi tufayli raqamli texnologiyalar davlat, kompaniyalar va jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy va iqtisodiy operatsiyalar narxini sezilarli darajada pasaytiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi, bunda tranzaksiya xarajatlar deyarli nolga teng bo'ladi, shuningdek samaradorlikni keskin oshiradi: mavjud faoliyat va xizmatlar arzonroq, tezroq yoki qulayroq bo'lishiga erishiladi. Nihoyat raqamli texnologiyalar integratsiyani osonlashtiradi.

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarining asosiy qismi davlat ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelishini va ularning faoliyati bevosita iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir etishini inobatga olib, ularning samarali foliyat ko'rsatishini tashkil etishning asosiy omillaridan biri bo'lib to'g'ri va samarali tashkil etilgan boshqaruv tizimi hisoblanadi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va ularning faoliyatiga korporativ boshqaruvning ilg‘or amaliyotini joriy etish borasida hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar mavjud:

1) Davlat ishtirokidagi korxonalarga egalik qilish mezonlari, davlatning nazorat qilish va mulkdor funksiyalarini ajratish hamda korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli Strategiya mavjud emas.

2) Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (KPI) e’lon qilinmaganligi sababli davlat aktivlarini boshqarish yo‘nalishida samaradorlikni baholash tizimi to‘laqonli joriy etilmagan.

Ma’lumot uchun: davlat ishtirokidagi 649 ta korxonalar tomonidan ushbu ko‘rsatkichlar e’lon qilinmagan.

3) Dividend siyosatini yuritish bo‘yicha yagona davlat organi belgilanmaganligi sababli aksiyadorlarning qonun hujjatlari va halqaronormalar bilan mustahkamlab qo‘yilgan dividend olishga bo‘lgan huquqlari buzilmoqda.

Davlat aktivlarini samarali boshqarish sohasidagi tizimli muammolarni bartaraf etish taklif qilinadi:

- Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish Strategiyasini qabul qilish;

- Davlat ishtirokidagi korxonalarning ijro organi va kuzatuv kengashi a’zolarini moddiy rag‘batlantirish mos ravishda samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (SMK) natijalari va korporativ boshqaruva tamoyillarini joriy etilishi darajasini baholashga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladigan tizimni joriy etish;

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligini dividend siyosatini yuritish bo‘yicha yagona davlat organi etib belgilash;

- davlat ishtirokidagi korxonalarning o‘rta va qisqa muddatlistategiyasini to‘liq amalga oshirish uchun ijroiya organi vakolatlarini bir yildan uch yilga uzaytirish;

- Ma’lumot uchun: AQSh, Argentina, Avstraliya, Chili, Xitoy, Hindiston, Italiya, Janubiy Koreya va Turkiyada 3 yilgacha, Germaniyada 5 yilgacha, Fransiyada kuzatuv kengashi a’zosi 6 yildan ortiq muddatgacha saylanishi mumkin.

- Kuzatuv kengashi mustaqil a’zolari Uyushmasini tashkil etish;

Ma’lumot uchun: Direktorlar mustaqil a’zolari uyushmasi bir qancha rivojlangan davlatlarda tashkil etilgan, jumladan Rossiyada (2002 yilda) – Mustaqil direktorlar uyushmasi; Qozog‘istonda (2007 yilda) – Mustaqil direktorlar uyushmasi; AQShda – Korporativ direktorlar milliy uyushmasi (NACD), Yevropa direktorlar uyushmalari konfederatsiyasi (eCoda), Buyuk Britaniyada – Direktorlar instituti (IoD) kabilar tashkil etilgan.

- Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibidagi davlat xodimlari sonini bosqichma-bosqich kamaytirish, ular tarkibigakamida bitta, jumladan

tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo‘lgan mustaqil a’zo kiritish;

- davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi faoliyatini baholash mexanizmini ishlab chiqish;
- korxonalar boshqaruv orgnlari yig‘ilishlarini videokonferensaloqa orqali o‘tkazish va elektron ovoz berish tartibotini joriy qilish;
- davlat ishtirokidagi korxonalarning biznes-rejasiga asosan investitsiya loyihasini amalga oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun tashqi manbaalar hisobidan qarz sifatida pul mablag‘lari jalb etilishi ko‘zda tutilgan taqdirda, ular tomonidan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi miqdoridan ortiq dividend to‘lashni ta’qilash;
- davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish loyihaslarini moliyalashtirishga homiylik va boshqa beg‘araz yordamlar uchun yo‘naltiriladigan mablag‘larning qonunchilikda belgilangan miqdoridan ortiq qismi davlat ulushi bo‘yicha dividendlar sifatida tan olish va biznes-reja ko‘rsatkichlarini bajarilishi bo‘yicha ularning moliya-xo‘jalik faoliyati yakunlarini baholashda inobatga olish.

XULOSA VA MUNOZARA

Raqamli texnologiyalar kompaniyalarga savdo, inventarizatsiya, ishlab chiqarish quvvati va operatsion jarayonlarni yangicha, ya’ni son darajasida tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatidakompaniya mahsulotlariga, yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o‘zaro munosabatlarga hamda jarayonlarni tashkil etishga nisbatan sifat jihatidan yangi xulosalarga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagи PQ-3832-son “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagи PF-5953- sonli “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)
3. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 26.04.1996 y. N 223-I
4. “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamонави корпоратив бoshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2015-yil 24-aprel
5. Gracheva M. Korporativ boshqaruv – axborot texnologiyalarining roli. // "Kompaniya boshqaruvi" jurnali. – Moskva, 2014. - № 10
6. S.Qudratov. Bank tizimida korporativ boshqaruvni takomillashtirish.Toshkent “Akademnashr” 2016 y. 176-bet.
7. S.Qudratov.,M.Nazarova. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv.Toshkent. TDIU. 2019 y.